



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 522 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlar (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmammatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
Baltayeva Xalima Toraboyevna	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
Khamidova Shabnam Gulakhmadovna	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
Ismailova Dildora Qudratullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
Mirzayeva Kamola Ikrom qizi	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
Shermatova Nazokat Safarovna	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
Zulayxo Mamajanova	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
Baxtiyor Odilovich Saidov	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
Икрамова Мунира Маруфжановна	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
Iskandarova Risolat Ravshanbekovna	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
Boboyarova Nilufar Saydullayevna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
Adilov Baxadir Tanatarovich	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	
Ta'lim sifatini monitoring qilishda elektron tizimlardan foydalanish samaradorligini oshirish: amaliy muammolar va takomillashtirish modeli	376
Oripova Shahzoda Zafarjon qizi	
Специфика подготовки фигуристов-одиночников на тренировочном этапе	380
Тохинова Шохсанам Фарход кизи	
Talabalarning Speaking ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish	385
Rasulova Moxira Abdusalilovna	
Umumta'lim jarayoni uchun milliy dastur yaratish hamda amaliyotga joriy etish nazariyasi	388
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Ta'lim muassasasi rahbarining raqamli kompetentligi mazmuni va tarkibiy komponentlari	394
Shakadirova Nigora Irgashevna	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirish: xorijiy tajriba va milliy model	398
Shabbazova Nodira Xamzayevna	
Мотивация к изучению английского языка у старшеклассников: теоретико-методологические основы, факторы и педагогические условия	403
Хаджиметова Дилноза Рахимовна	
Milliy hunarmandchilik vositasida uyushmagan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	408
Baxronova Shoir Yadorovna	



O'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari tuzilishi	415
Botirova G. B.	
Radioelektron qurilmalarni konstruksiyasi va loyihalash fanini o'qitishda virtual-real laboratoriya mashg'ulotlarining integratsiyalashgan metodik modeli	421
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Gender yondashuvi asosida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	427
Tojiboyeva Gulchexra Sadriddinovna	
Raqamli avlod o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni tarix ta'limi orqali shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	437
Ahmedov Nodir Kodiraliyevich	
Zo'ravonlik tajribasini boshdan kechirgan bolalarda koping-strategiyalarining shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	443
Komilova Komila Inomjon qizi	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning pedagogik imkoniyatlari va nazariy-metodologik tahlili	446
Abdurahmonova Shaxodat Faxridin qizi	
Kredit-modul tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil talim olish imkoniyatlarini takomillashtirish modeli	453
A. X. Eshqorayev, M. Q. Urozov, Q. A. Eshqorayev	
Muhandislik kasbini shakllantirishda tasviriy san'at fanining o'rni va ahamiyati	456
Fazliddinova Gulasal Farhod qizi	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalarini o'qitish uchun kompetensiyaga yo'naltirilgan adaptiv metodik tizim: kvazi-eksperimental tadqiqot dalillari	461
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Xolbekov Abdusattor Maxammatovich	
Malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari	470
Odilova Feruza	
Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishning amaliy holati va mavjud muammolar	477
Perdeshova Nargiza Yesenbayevna	
5–6 yoshli bolalarning ingliz tili mashg'ulotlarida kreativ faoliyatini baholash: montessori tamoyillariga mos diagnostik rubrika loyihasi	482
Sadoqat Karimova Abduxamidovna	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 3-nashri asosida bolalarning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish	489
Tursunova Kamolaxon Ulug'bek qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlanish sohalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlashga innovatsion yondashuvlar	495
Yigitaliyeva Gullola Mirobil qizi	
Temperament fenomenining evolyutsiyasi va ilmiy talqinlari	498
Dilmurodova Zilola Davron qizi	
Integrativ yondashuv asosida ingliz tili darslarida debat texnologiyasi orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish ...	502
Abdulaxatova Shohsanam Adhamjon qizi	
SMART-SL metodikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	506
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna, Zumakova Dilbarxon	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi komponentlari va ularning vazifaviy tavsifi ...	511
Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna	
Diskret vaqtli seir epidemik model dinamikasi	516
Shukurova Shahnoza Sayfiddin qizi	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORGARLIGI KOMPONENTLARI VA ULARNING VAZIFAVIY TAVSIFI

Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti



ORCID: 0009-0004-7716-5927

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tarkibiy jihatdan tadqiq etilgan. Kasbiy tayyorgarlikning pedagogik mohiyati mavjud ilmiy yondashuvlar asosida aniqlashtirilgan. Uning tarkibiy qismlarini belgilashda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining zamonaviy kasbiy vazifalari asos qilib olingan. Natijada motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga oid, shaxsiy-kommunikativ, axborot-kommunikativ va refleksiv komponentlar ajratilgan. Har bir komponentning mazmuni va kasbiy faoliyatdagi funksiyasi tavsiflangan. Komponentlarning pedagogik vaziyatlarda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lishi asoslangan. Mualliflik yondashuvi sifatida kasbiy tayyorgarlikning mazkur komponentlari boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy vazifalari bilan funksional jihatdan uyg'unlashtirilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mazmunan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyat, motivatsion-qadriyatli komponent, kognitiv komponent, faoliyatga oid komponent, shaxsiy-kommunikativ komponent, axborot-kommunikativ komponent, refleksiv komponent.

Abstract: The article examines the component structure of the professional readiness of prospective primary school teachers. The pedagogical essence of professional readiness is clarified through an analysis of relevant theoretical approaches. Contemporary professional tasks of primary school teachers are taken as the basis for determining its structure. Six components are identified: motivational-value, cognitive, activity-based, personal-communicative, information-communicative, and reflective. The content and functional role of each component are described. Their interrelationship in solving pedagogical tasks is substantiated. The author's approach consists in functionally correlating these components with the professional tasks of primary school teachers. The findings can contribute to improving the content of the professional preparation of prospective teachers.

Key words: future primary school teacher, professional readiness, professional activity, motivational-value component, cognitive component, activity-based component, personal-communicative component, information-communicative component, reflective component.

Аннотация: В статье исследована компонентная структура профессиональной готовности будущего учителя начальных классов. На основе научных подходов уточнена педагогическая сущность профессиональной готовности. При определении её структуры учитывались современные профессиональные задачи учителя начальной школы. Выделены мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностный, личностно-коммуникативный, информационно-коммуникативный и рефлексивный компоненты. Раскрыты содержание и функциональное назначение каждого компонента. Обоснована их взаимосвязь в процессе решения педагогических задач. Авторский подход заключается в функциональном соотнесении компонентов профессиональной готовности с профессиональными задачами учителя начальных классов. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании профессиональной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель начальных классов, профессиональная готовность, профессиональная деятельность, мотивационно-ценностный компонент, когнитивный компонент, деятельностный компонент, личностно-коммуникативный компонент, информационно-коммуникативный компонент, рефлексивный компонент.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy boshlang'ich ta'limda o'qituvchining kasbiy faoliyati faqat o'quv fanlari mazmunini bilish va uni o'quvchilarga yetkazish bilan chegaralanmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kichik maktab yoshidagi bolalarning individual xususiyatlarini aniqlashi, o'quv jarayonini loyihalashi, turli pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, o'quvchi va ota-onalar bilan samarali muloqot o'rnatishi, raqamli hamda axborot resurslaridan pedagogik maqsadlarda foydalanishi va o'z faoliyati natijalarini muntazam tahlil

qilishi zarur. Raqamli texnologiyalarning o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga kirib borishi ham kasbiy tayyorgarlik mazmunining kengayishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bevosita bog'lanayotgani qayd etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni egallash bilan birga, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash, samarali muloqot va hamkorlikni tashkil etish, axborot va raqamli vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda o'z faoliyatini tahlil qilib, takomillashtirib borish qobiliyatlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur muammo pedagogning kasbiy tayyorgarligini bir-biridan ajratilgan bilim va ko'nikmalar majmui sifatida emas, balki o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tashkil topuvchi yaxlit pedagogik hodisa sifatida o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limning ko'p funksiyali xususiyati bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi tarkibini aynan uning kelajakdagi kasbiy vazifalaridan kelib chiqib aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot obyekti – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni. Tadqiqot predmeti – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi komponentlarining mazmuni, funksiyalari va o'zaro bog'liqligi.

Tadqiqot maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tarkibiy komponentlarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlashtirish hamda ularning kasbiy faoliyatdagi funksional xususiyatlarini tavsiflash.

Mazkur maqsadga muvofiq pedagogning kasbiy tayyorgarligiga doir ilmiy yondashuvlarni qiyosiy o'rganish, boshlang'ich sinf o'qituvchisining zamonaviy kasbiy vazifalari bilan bog'liq tayyorgarlik xususiyatlarini aniqlash, kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy komponentlarini tasniflash, ularning mazmuni, funksiyasi va kasbiy faoliyatda namoyon bo'lish xususiyatlarini asoslash tadqiqot vazifalari sifatida belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogning kasbiy tayyorgarligi masalasi pedagogika va kasbiy ta'lim nazariyasida turli ilmiy nuqtayi nazarlardan tadqiq qilingan.

N.V. Kuzmina pedagogik faoliyatni gnostik, loyihalash, konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ funksiyalar birligi asosida tavsiflaydi ^[1]. Uning yondashuvi pedagog mehnatini alohida harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq funksiyalar tizimi sifatida o'rganish imkonini beradi.

V.A. Slastenin, I.F. Isayev va E.N. Shiyonov pedagog tayyorgarligini yoritishda kasbiy bilim va amaliy faoliyat bilan bir qatorda, shaxsning pedagogik yo'nalganligi va kasbiy pozitsiyasiga alohida ahamiyat beradi ^[2]. Ularning yondashuvida o'qituvchining tayyorligi bilimni o'zlashtirishdan kengroq mazmunga ega bo'lib, pedagogik faoliyatni ongli amalga oshirish imkoniyati bilan bog'lanadi.

A.K. Markova kasbiy yetuklikni bilimlar, kasbiy faoliyat, kasbiy pozitsiya va individual-psixologik xususiyatlarning o'zaro munosabati asosida tushuntiradi ^[3]. Bu qarash kasbiy tayyorgarlikni faqat kognitiv mezonlar orqali baholashning cheklanganligini ko'rsatadi.

L.S. Shulman o'qituvchi bilimining o'ziga xosligini pedagogik mazmuniy bilim konsepsiyasi orqali ochib beradi ^[4]. Ushbu yondashuvga ko'ra, predmet mazmunini bilishning o'zi samarali pedagogik faoliyat uchun yetarli bo'lmay, o'qituvchi bilimni o'quvchi uchun o'zlashtiriladigan shaklga pedagogik jihatdan transformatsiya qila olishi lozim. Shulmanning yondashuvi tushunish, pedagogik mulohaza, transformatsiya va refleksiyaning o'qituvchi faoliyatining muhim jarayonlari sifatida birlashtiradi.

So'nggi xorijiy tadqiqotlarda ham o'qituvchining kasbiy tayyorligini komponentli tuzilma asosida o'rganish davom etmoqda. Jumladan, A. Muratkyzy, T. Slambekova, E. Sultanova va N. Tercan kasbiy tayyorgarlikni kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ hamda refleksiv-qadriyatli komponentlar orqali o'rganib, ularning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydilar ^[5]. Mazkur yondashuv kasbiy tayyorgarlikni faqat bilim va amaliy ko'nikmalar bilan cheklamasdan, muloqot, qadriyat va refleksiya bilan bog'liq jihatlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli texnologiyalar vositasida tayyorlashga bag'ishlangan tadqiqotda M. Shvardak, M. Ostrovska, N. Bryzhak, A. Predyk va L. Moskovchuk raqamli vositalardan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan aniqlaganlar ^[6]. Tadqiqot natijalarida tajriba guruhida kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq o'sishi kuzatilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xalqaro tajriba, raqamli savodxonlik, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarning o'rni o'rganilmoqda. Xususan, M. Dehqonboyev Finlyandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya tajribasini tahlil qilib, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida raqamli savodxonlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yoritgan ^[7].



Shuningdek, Y. Qipchaqova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhiti va kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchi tayyorlash mazmuniga yangi talablarni yuzaga keltirayotganini qayd etadi [8].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili kasbiy tayyorgarlikning bilim, amaliy faoliyat, muloqot, raqamli vositalardan foydalanish, kasbiy qadriyatlar va refleksiya bilan bog'liq jihatlari turli tadqiqotlarda alohida yoki o'zaro bog'liq holda o'rganilganini ko'rsatadi. Biroq bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga xos vazifalardan kelib chiqib, ushbu jihatlarni yagona tasnif asosida ajratish va har birining funksional vazifasini aniqlashtirish zarurati mavjud. Shu asosda mazkur tadqiqotda kasbiy tayyorgarlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga oid, shaxsiy-kommunikativ, axborot-kommunikativ va refleksiv komponentlar asosida tavsiflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tarkibini aniqlash va uning asosiy komponentlarini funksional jihatdan tavsiflash maqsad qilinganligi sababli, tadqiqot nazariy-tahliliy yo'nalishda olib borildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va tasniflash metodlaridan foydalanildi. Dastlab pedagogning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy faoliyatiga oid ilmiy qarashlar o'rganildi. N.V. Kuzmina, V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Shiyanov va A.K. Markovanning pedagog kasbiy faoliyatiga oid yondashuvlari tahlil qilinib, ularda kasbiy bilim, amaliy faoliyat, kasbiy yo'nalganlik, muloqot va shaxsiy sifatlarning tutgan o'rni aniqlandi. Shuningdek, L.S. Shulmanning pedagogik mazmuniy bilimiga oid qarashlaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil orqali an'anaviy ilmiy qarashlar zamonaviy tadqiqotlar bilan solishtirildi. Xususan, M. Shvardak va hammualliflarning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o'rni bag'ishlangan tadqiqoti, M. Dehqonboyev va Y. Qipchaqovanning kasbiy kompetentlikka oid ishlari hamda A. Muratkyzy va hammualliflarning kasbiy tayyorgarlik komponentlariga doir yondashuvlari tahlil qilindi. Bu orqali zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatida bilim va amaliy ko'nikmalar bilan bir qatorda, motivatsiya, muloqot, raqamli vositalardan foydalanish va refleksiyaning ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

To'plangan ma'lumotlar tizimlashtirish va tasniflash asosida umumlashtirilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga oid, shaxsiy-kommunikativ, axborot-kommunikativ va refleksiv komponentlar bo'yicha tavsiflandi. Har bir komponent uning mazmuni, kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishi va kutiladigan kasbiy natijasi asosida tahlil qilindi. Mazkur yondashuv kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini alohida sanab o'tish bilan cheklanmay, ularning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida bajaradigan vazifalarini aniqlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi faqat pedagogik va metodik bilimlarni egallash bilan cheklanmasligi aniqlandi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv jarayonini rejalashtirishi, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishi, turli pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, axborot va raqamli vositalardan foydalanishi hamda o'z faoliyatini tahlil qilib borishi talab etiladi. Olimlarning ishlarini o'rganish orqali olib borilgan tahlil va umumlashtirish natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga oid, shaxsiy-kommunikativ, axborot-kommunikativ va refleksiv komponentlar (1-jadval) ajratildi.

1-jadval: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi komponentlarining funksional tavsifi

Komponent	Asosiy mazmuni	Kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishi	Kutiladigan kasbiy natija
Motivatsion-qadriyatli	Kasbga qiziqish, mas'uliyat, pedagogik qadriyatlar, o'zini rivojlantirishga intilish	O'qituvchilik faoliyatiga ongli munosabat, bolalar bilan ishlashga tayyorlik	Kasbiy faoliyatga barqaror motivatsiya
Kognitiv	Pedagogik, psixologik, metodik va fanlarga oid bilimlar	O'quv mazmunini tushuntirish, metod va vositalarni asosli tanlash	Kasbiy vazifalarni bilim asosida hal qilish
Faoliyatga oid	Nazariy bilimlarni pedagogik amaliyotda qo'llash	Darsni rejalashtirish va tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni hal qilish	Samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirish



Shaxsiy-kommunikativ	Muloqot, hamkorlik, tinglash, fikrni aniq ifodalash	O'quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan samarali munosabat o'rnatish	Pedagogik hamkorlikni ta'minlash
Axborot-kommunikativ	Axborotni izlash, tanlash va qayta ishlash, raqamli vositalardan foydalanish	Raqamli ta'lim resurslari va axborotlardan pedagogik maqsadda foydalanish	Axborot va raqamli vositalardan samarali foydalanish
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash	Dars natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va faoliyatni takomillashtirish	Kasbiy faoliyatni muntazam takomillashtirish

Izoh: Berilgan 1-jadvalni N.V. Kuzmina ^[1], V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Shiyanov ^[2], A.K. Markova ^[3], L.S. Shulman ^[4], A. Muratkyzy ^[5], M. Shvardak va boshq. ^[6], M. Dehqonboyev ^[7], Y. Qipchaqova ^[8] va boshqa ilmiy qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida shakllantirdik.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchining tanlagan kasbiga munosabatini ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyati kichik yoshdagi o'quvchilar bilan muntazam ishlash, ularning rivojlanishi uchun mas'uliyatni his qilish va pedagogik vazifalarni sidqidildan bajarishni talab qiladi. Shu sababli kasbga qiziqish, pedagogik qadriyatlarni qabul qilish va o'z ustida ishlashga intilish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kognitiv komponent bo'lajak o'qituvchining pedagogik, psixologik, metodik va fanlarga oid bilimlarini qamrab oladi. Bunda talabaning ma'lumotni bilishi bilan birga, uni boshlang'ich sinf o'quvchisining yoshi va individual xususiyatlariga mos shaklda tushuntira olishi muhim.

L.S. Shulmanning pedagogik mazmuniy bilim haqidagi qarashlari ham o'qituvchining fan mazmunini o'quvchi uchun tushunarli shaklga keltira olishiga alohida ahamiyat beradi. Faoliyatga oid komponent egallangan bilimlarni amaliy pedagogik faoliyatda qo'llash bilan bog'liq. U dars maqsadini belgilash, mashg'ulotni rejalashtirish, metod va vositalarni tanlash, o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish, ta'lim natijalarini baholash va yuzaga kelgan pedagogik vaziyatlarga mos qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi. Demak, bu komponent bilimni amaliy pedagogik harakatga aylantirish vazifasini bajaradi.

Shaxsiy-kommunikativ komponent boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasining boshqa ishtirokchilari bilan muloqot va hamkorlik qilishiga xizmat qiladi. O'qituvchining fikrini tushunarli bayon etishi, suhbatdoshini tinglashi, pedagogik vaziyatlarda o'zaro kelishuvga erishishi va jamoada ishlay olishi kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Axborot-kommunikativ komponent zamonaviy ta'lim sharoitida axborot bilan ishlash va raqamli vositalardan pedagogik maqsadlarda foydalanishni ifodalaydi. U kerakli axborotni izlash, uning ishonchililigini baholash, qayta ishlash va ta'lim jarayoniga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

Refleksiv komponent bo'lajak o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va mavjud kamchiliklarni aniqlab, keyingi faoliyatini takomillashtirishini anglatadi. Masalan, darsdan keyin qo'llangan metodning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning qaysi mavzuni o'zlashtirishda qiyinligini aniqlash va keyingi dars uchun tegishli o'zgartirishlar kiritish refleksiv faoliyatning amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur komponentlar kasbiy faoliyatda alohida holda namoyon bo'lmaydi. Masalan, darsni tashkil etishda o'qituvchiga fan va metodikaga oid bilimlar, ularni amalda qo'llash ko'nikmasi, o'quvchilar bilan muloqot, zarur axborot va raqamli vositalardan foydalanish hamda dars natijasini tahlil qilish bir vaqtning o'zida zarur bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, komponentlarning o'zaro bog'liqligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini yaxlit mazmunda tushunish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan nazariy tahlil bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi ko'p tarkibli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Kasbiy tayyorgarlikni faqat nazariy bilim yoki metodik ko'nikmalar bilan cheklash zamonaviy boshlang'ich ta'lim talablarini to'liq qamrab olmaydi. Chunki o'qituvchining kasbiy faoliyatida bilim, amaliy harakat, kasbiy motivatsiya, muloqot, axborot bilan ishlash va o'z faoliyatini tahlil qilish bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatga oid, shaxsiy-kommunikativ, axborot-kommunikativ va refleksiv komponentlar ajratildi. Har bir komponentning mazmuni, kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishi va kutiladigan natijasi aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliy pedagogik vaziyatlar bilan bog'lash, muammoli va vaziyatli topshiriqlardan foydalanish, talabalarni



o'quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan muloqotga tayyorlash, raqamli ta'lim vositalaridan pedagogik maqsadda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda dars va pedagogik amaliyot natijalarini tahlil qilishga qaratilgan refleksiv topshiriqlarni muntazam qo'llash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, aniqlangan komponentlardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorligini rivojlantirish mazmunini belgilash, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot topshiriqlarini ishlab chiqish hamda keyingi tadqiqotlarda ularning mezon, ko'rsatkich va indikatorlarini aniqlash uchun nazariy asos sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. – 117 с.
2. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика: учебное пособие: в 2 ч. / под ред. В.А. Сластенина. Ч. 1. – М.: ВЛАДОС, 2002. – 286 с.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд "Знание", 1996. – 308 с.
4. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol. 57, No. 1. – P. 1–23.
5. Muratkyzy A., Slambekova T., Sultanova E., Tercan N. Competence-based approach in developing professional readiness of applied bachelors in teacher education // Frontiers in Education. – 2026. – Vol. 11. – Article 1801728.
6. Shvardak M., Ostrovska M., Bryzhak N., Predyk A., Moskovchuk L. The Use of Digital Technologies in Professional Training of Primary School Teachers // International Electronic Journal of Elementary Education. – 2024. – Vol. 16, No. 3. – P. 363–376.
7. Dehqonboyev M. International Experience in Developing Professional Competence of Primary School Teachers // O'zMU Xabarlari (ACTA NUUZ). – 2025. – Vol. 1, No. 1. – P. 102.
8. Qipchaqova Y. Formation of the Professional Competence of Future Primary School Teachers as a Pedagogical Necessity // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2026. – Vol. 6, No. 6. – P. 22–25.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.